

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-3/1
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№3/1 (124), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 244 b. –Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Saydullayeva I.S., Nomozova Z.B., Rasulova Z.A., G'ofurova G.Sh. Urgut botanika-geografik rayonida <i>Scutellaria L.</i> turkumi turlarining tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari	89
Sobirov O.T., Kaxxorova X.R., Zokirova M.S., Turg'unova O'.Sh., Raximova M.U. Andijon viloyatidagi mevali va manzarali o'simliklarda tarqalgan yostiqsimon soxtaqaqlqondorlar (<i>Hemiptera: Coccoomorpha: Coccidae</i>)ga oid	93
Tonkix A.K., Verushkina O.A., Baymurzaev E.N., Sagdieva M.G. Temir oksidlovchi bakteriyalar assotsiatsiyasini elektrokimyoviy yetishtirish	98
Umedov A.M., Esanov H.Q., Rahmonov N., Davronova A.O. Buxoro shahri urbanoflorasi adventiv fraksiyasining dominant va subdominant turlari	101
Xolliyev A.E., Xamrayev N.U., Bazarboyev D.I. Kinoa (<i>Chenopodium quinoa Willd.</i>) o'simligining morfologik xususiyatlari va qishloq xo'jaligida qo'llash istiqbollari	105
Yuldoshev X.T., Kurbanov F.E. Turli ekologik hududlarda urchitiluvchi karp baliqlarining qon zardobining leykotsitlar formulasi ko'rsatkichlari	109
Yunusov X.B., Kurbanov F.E., Yuldoshev X.T., Kuvvatov X.A. Turli noqulay bioekologik sharoitda baliqchilik xo'jaliklarida o'tkazilgan gidrokimyoviy tekshirish natijalari	112
Zokirova G.M., Zokirov I.I. Farg'ona vodiysi ochiq urug'li o'simliklarida tasodifiy uchrovchi hasharotlar	115
Абдурахимов У.К., Усманов Р.М. Хоразм вилояти тупроқ-иклим шароитида дастарбош (<i>Tanacetum</i>) турларининг гуллаш динамикаси	119
Амиров О.О., Кучбоев А.Э. Ўзбекистонда тарқалган <i>Eremias Velox</i> (<i>Lacertidae: Eremias</i>) калтакесагининг молекуляр-генетик тавсифи	125
Асқарова Н.К., Ахмедов Э.Т. <i>Origanum majorana L.</i> ни вегетатив кўпайтиришда турли хил бистимуляторларнинг таъсири	130
Кызылбаева К.С., Конгратбаева П.О., Бердибаев А.С. Қорақалпоғистон сув хавзалари оддий лакка (<i>Silurus glanis</i>) балиқларида паразитлик қилувчи трематода синфи гельминтлари	134
Кулмирзаева М.И., Даминов А.С. Самарқанд вилоятининг айрим худудларида трематодозларни тарқалиши, уларни даволаш натижалари	139
Миркамилова Х.С., Улугова С.Ф. Доривор валериана ўсимлигининг биометрик кўрсаткичларига “оксигуммат экстра” моддасини қўллашнинг таъсири	142
Муродов Б.Э., Яхёев Ж.Н. Унаби ўсимлиги энтомофаунасининг таксономик таркиби	145
Рахимова Н. Современное состояние карабараковой формации в Амударьинских тугаях (Узбекистан)	148
Рахимова Н., Султанмуратов А.Т. Анализ пространственных изменений структуры с использованием неметрического многомерного шкалирования (NMDS) галофильной растительности Приаралья	151
Сайдуллаева Д.С., Номозова З.Б., Мукумов И.У., Расулова З.А. Лекарственные растения семейства <i>Rosaceae Juss.</i> во флоре Самаркандской области	156
Эгамбердиев С., Ганджаева Л. <i>Helicoverpa armigera</i> – вредитель кунжута	161
QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI	
Amanturdiyev I.G., Ibodullayeva D.O., Norqobilova Sh.B. G'o'zaning ekologik-geografik uzoq F ₁ -F ₂ duragaylarida morfobiologik belgilarning irsiylanishi va o'zgaruvchanligi	164
Aminjonova Ch.A. Buxoro viloyati sharoitida soya (<i>Glycine hispida Maxim</i>) o'simligini yetishtirishda ozuqa elementlariga bo'lgan talabi	167
Ibragimova F.D., Daminov A.S. Jo'jalar eymerioz qo'zg'atuvchilari bilan asinxron zararlanganida fensid va fensid premiks preparatlarining samaradorligi	171
Odilova M.Yo. <i>Anisum vulgare Gaertn</i> o'simligining dorivor xususiyati va yetishtirish texnologiyasi	173
Raximbayeva D.A., Abduraximov U.K., Saidov R.I. Qoraqum ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba dalalari tuproqlarining agrokimyoviy tahlili	176
Saidova S.A., Matyakubov Z.Sh. <i>Atropa belladonna</i> ning xalq xo'jaligidagi ahamiyati	180

международных проектов ГКНТ. 1989. 375 с.

7. Сагдиева М.Г, Тонких А.К, Баймурзаев Е.Н, Верушкина О.А., Омонов Р.Ч., Абдукадирова Ю.М. Ассоциация бактерий для выщелачивания меди из отходов Алмалыкского горно-металлургического комбината// Вестник НУУз. 2023. 3/2/1/. С.124-128. <http://journals.nuu.uz>

UO'K 581

BUXORO SHAHRI URBANOFLOKASI ADVENTIV FRAKSIYASINING DOMINANT VA SUBDOMINANT TURLARI

A.M. Umedov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
H.Q.Esanov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
N.Rahmonov, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
A.O.Davronova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahri urbanoflorasining adventiv fraksiyasining dominant va subdominant turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chetdan kirib kelgan turlar tadqiqot hududida moslashish imkoniyatlarini yuqoriligi tufayli dominant va subdominant turlarga aylanib bormoqda. Ularning nafaqat shahar florasini tarkibida, balki boshqa tabiiy landshaftlarning jamoalari tarkibida ham uchrashini qayd qilish mumkin. Yaqin o'n yillikda kirib kelgan turlarning invaziv xususiyatni namoyon qilishi ularning muvaffaqiyatli iqlimlashganligini ko'rsatgan. Adventiv fraksiyaning dominant turlari sifatida *Hornungia procumbens*, *Lepidium ruderales*, *Strigosella africana*, *Veronica polita*, *Hordeum murinum subsp. leporinum*, *Spergularia media*, *Symphyotrichum graminifolium*, *Trifolium repens*, *Chenopodium ficifolium*, *Amaranthus viridis*, *Erigeron canadensis* keltirilgan.

Kalit so'zlar: Adventiv o'simliklar, invaziv turlar, urbanoflora, Buxoro, o'simlik jamoalari, o'simliklar karantini.

Аннотация. В данной статье приведены данные о доминантных и субдоминантных видах адвентивной фракции урбанофлоры города Бухары. Из-за высокой способности к адаптации интродуцированные виды постепенно становятся доминантными и субдоминантными в исследуемом регионе. Отмечается их присутствие не только в составе флоры города, но и в сообществах других природных ландшафтов. Демонстрация инвазивных свойств видов, завезённых в последние десятилетия, указывает на их успешную акклиматизацию. В качестве доминантных видов адвентивной фракции приведены: *Hornungia procumbens*, *Lepidium ruderales*, *Strigosella africana*, *Veronica polita*, *Hordeum murinum subsp. leporinum*, *Spergularia media*, *Symphyotrichum graminifolium*, *Trifolium repens*, *Chenopodium ficifolium*, *Amaranthus viridis*, *Erigeron canadensis*.

Ключевые слова: адвентивные растения, инвазивные виды, урбанофлора, Бухара, растительные сообщества, карантин растений.

Abstract. In this article information is cited about the urban flora of Bukhara's adventive fraction of dominant and sub-dominant types. Invasive species are becoming dominant and sub dominant in study area due to their high adaptability. Their presence is not only can be noted in urban flora's content, but also in country's natural landscapes as well. In recent decades, foreign plants revealed invasive characters shows their successful acclimatization. As the types of adventive fraction *Hornungia procumbens*, *Lepidium ruderales*, *Strigosella africana*, *Veronica polita*, *Hordeum murinum subsp. leporinum*, *Spergularia media*, *Symphyotrichum graminifolium*, *Trifolium repens*, *Chenopodium ficifolium*, *Amaranthus viridis*, *Erigeron canadensis* cited.


Key words: Adventive plants, invasive species, urban flora, Bukhara, plant groups, plant quarantine.

Kirish. Shaharlar florasining dinamik jarayonlari faol kechadigan hududlardan biri sanaladi. So'ngi paytlarda shahar maydonlarining keskin o'sishi bilan bir tomondan mahalliy tur tarkibining kamayishi va boshqa tomondan, tasodifiy turlar tufayli shahar florasining floristik boyligi ortib bormoqda (Xusainov va boshq., 2012). Urbanofloralarning o'simlik tarkibini o'rganish zamonaviy florigenez xususiyatlarini tushunish va kelajakda ularning o'zgarishini taxmin qilish imkonini beradi.

Shuning uchun floristik tadqiqotlar botanik tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday tadqiqotlar respublikamizda dastlabki bosqichda amalga oshirilmoqda. Buni Buxoro shahri urbanoflorasida olib borilayotgan tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Buxoro shahri O'zbekistonning ko'hna va qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, florasining tarkibi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda mahalliy floralar bilan bir qatorda adventiv fraksiyaning o'rni juda yuqori. (Umedov va Esanov, 2024). So'nggi yillarda urbanizatsiya va antropogen ta'sir tufayli shaharda chetdan kirib kelgan adventiv o'simlik turlari keng tarqala boshladi. Ushbu o'simliklar muvaffaqiyatli moslashib mahalliy o'simlik jamoalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ayrim ekologik muhitlarda dominant yoki subdominant turlarga aylanib bormoqda. 2006-2024-yillar davomidagi tadqiqotlar Buxoro viloyati hududida adventiv fraksiya vakillarining ortib borgani, bu ayniqsa urbanoflora tarkibida ko'proq namoyon bo'lganligini ko'rsatdi (Esanov, 2023). Bu holat nafaqat Buxoro shahrida balki dunyoning barcha shaharlarida adventiv turlarning konsentratsiyasi yuqori bo'ladi. Buxoro shahrida olib borilgan tadqiqotlar urbanoflora tarkibida 96 tur adventiv o'simliklar mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida ayrim vakillari invaziv turlarga aylanib o'simlik jamoalarida dominant maqomiga ega bo'lmoqda.

Material va metodika. 2021-2024 yillarda davomida Buxoro shahri urbanoflorasini yuksak o'simliklarini tadqiq qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlar marshrutli usulda olib borildi va gerbariy namunalari yig'ilib dominant hamda subdominant turlar aniqlandi (Щербakov & Майоров, n.d.). Yig'ilgan gerbariy namunalari ilmiy manbalar asosida aniqlandi (Anon., 1941-1963) (Anon., 2016-2017) (Anon., 2019) (Anon., 1968-2015) (Esanov & Usmonov M, 2018). Turlarning tarqalish xaritasi ArcGIS version 10.6.1 dasturida WGS 1984 (World Geodetic System 1984) proeksiyasi asosida yaratildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Buxoro shahri ko'chalari, ekin maydonlari atroflari, qarovsiz yerlar, ruderal maydonlar, xiyobonlar va ko'p qavatli uylarning atroflarida va gazonlar atroflarida fasllarga qarab o'simliklarning dominantlik yoki subdominantlik qilish holatlarini kuzatish mumkin. Mazkur turlar juda katta miqdorni tashkil qilmaydi. Chunki ular orasida invaziv maqomini olgan turlar oz miqdorni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda Buxoro shahri urbanoflorasi tarkibida 26 oila, 70 turkumga mansub 96 tur adventiv o'simliklar uchrashi aniqlandi. Ushbu o'simliklar tarkibi Buxoro shahridan tashqarida ya'ni Buxoro viloyatining Romitan, Peshku, Jondor, Vobkent, G'ijduvon, Shofirkon, Olot, Qorako'l va boshqa tumanlarida tarqalishi o'rganilganda nisbatan siyrak tarqalganligini ko'rish mumkin. Shahar hududi adventiv turlar konsentratsiyasi yuqori bo'lgan o'chog'lardan biri sanaladi. Buni Yevropaning ko'p shaharlarida kuzatish mumkin (Tamás, et al., 2020). Olib borilgan tadqiqot natijalari Buxoro shahrida adventiv turlarning konsentratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatdi (1-rasm).



1-rasm. Buxoro vohasi va Buxoro shahrida adventiv turlarning tarqalishi

Buxoro shahri urbanoflorasi tarkibida vegetatsiya davri qisqa bo'lgan turlar bilan birga kuzgacha rivojlanishni davom ettirib, dominantlik qiladigan turlar aniqlandi. Ular qatoriga *Hornungia procumbens* (L.) Hayek, *Lepidium ruderales* L., *Strigosella africana* (L.) Botsch., *Veronica polita* Fr. *Hordeum murinum* subsp. *leporinum* (Link) Arcang., *Spergularia media* (L.) C.

Persl. kabilar qisqa muddatli va *Symphyotrichum graminifolium* (Spreng.) G.L.Nesom., *Trifolium repens* L., *Chenopodium ficifolium* Sm., *Amaranthus viridis* L., *Erigeron canadensis* L. vegetatsiyasini davom ettirib dominantlikni namoyon qiladi (2-3-rasm). Mazkur turlar erta bahorda o'simlik jamoalarida son jihatdan ko'p uchrashi qayd etildi. Mazkur turlar orasida Buxoro shahrining barcha hududlarida eng keng tarqalgan *Amaranthus viridis*, *Trifolium repens*, *Lepidium ruderales* va *Hornungia procumbens* turlarini ko'rsatish mumkin.

A. viridis L. birinchi marta O'zbekistonda 2006-yil Buxoro vohasining Peshku tumanidan topilgan (Esanov, 2017). Shu davrda turning tarqalish maydonlari tor diapazonni tashkil qilgan. Ammo so'ngi yillarda invaziv tur sifatida Buxoro vohasining barcha hududlarini ya'ni ariq, yo'l bo'ylari, ekinlar orasi, bog'lar, ruderal, tashlandiq, ekilmay yotgan yerlarni egalladi (4-rasm). Shuningdek, shahar ko'chalari, gulzorlarda va ko'p qavatli binolar oldida ham uchray boshladi. Ushbu muhitlardagi o'simliklar jamoalarida dominant tur sifatida ishtirok etdi (Esanov, 2017)



2-rasm. *Symphyotrichum graminifolium* (Spreng.)
G.L.Nesom



3-rasm. *Trifolium repens* L.



4-rasm. Yashil machinning (*Amaranthus viridis*) ekin maydonlari atroflarida tarqalishi



5-rasm. *Erigeron canadensis* L.

Bahorda tadqiqot hududida nisbatan kam uchraydigan subdominant turlar *Digitaria sanguinalis* (L.) Scop., *Erigeron bonariensis* L., *Euclidium syriacum* (L.) W.T. Aiton, *Convolvulus arvensis* L. kabi turlar aniqlandi (5-rasm). Ularni ekin maydonlari atroflari, ariq bo'ylari, xiyobonlar va sernam yerlarda uchrashi kuzatildi. Subdominant turlar orasida *Erigeron bonariensis* L., 2015-yilda (15

indeksda uchragan) Buxoro shahriga kirib kelganiga qaramasdan hozirgi kundun uning 20 ga yaqin populyatsiyasi topildi. Ayni paytda invazivlik xususiyatini namoyon qilib E6, F4, F5, F6, G4, G6, G7, G8, G9, H5, H6, H7, I5, I6, I7, J6 indekslarida qayd etildi. Bu uning mazkur hududda jadal ko'payib tarqalayotganligini namoyon qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi (Esanov & Usmonov M, 2018). 2024 yil 14-15 sentabrda Olot va Qorako'l tuman markazlarida, xiyobonlarda mazkur turning yangi populyatsiyalari topildi va bu ayni paytdagi muammolardan biri sanaladi.

Kuz oylarida dominant o'rni yaqqol namoyon bo'ladigan turlar qatoriga *Echinochloa crus-galli* (L.) P. Beauv., *Chenopodium ficifolium* Sm., *Convolvulus arvensis* L., *Erigeron canadensis* L., *Cynodon dactylon* (L.) Pers. kabi turlar kiritildi. Subdominant tur sifatida *Sonchus oleraceus* L., *Artemisia annua* L., *Cichorium intybus* L., *Lepidium latifolium* L. va boshqalar kiritildi. Ushbu turlar shahar ko'chalarining yo'l bo'ylarida, gulzorlarda, ariq bo'ylari va sernam joylarda uchrashi qayd etildi. Qo'yechak (*Convolvulus arvensis*) va oddiy sachratqi (*Cichorium intybus*) tupini sovuq urguncha gullashda davom etaveradi. Ushbu turlar ekin maydonlarida, tashlandiq hududlarda, yo'l bo'yi gulzorlarida keng tarqalgan. G'allabargli simfotrixum (*Symphotrichum graminifolium*) qish faslida ham tupining pastki qismi yashilligini saqlab erta bahorda yana o'sishda davom etadi. Hozirgi kunda Buxoro shahar hududi bo'ylab keng tarqalgan. Tur dastlab 2007-yilda Buxoro viloyatidan topilgan bo'lsa (Esanov, 2017) 2024-yilda uning maydoni butun O'zbekiston bo'ylab kengayib dominant tur sifatida qayd etila boshladi. Ayni paytda turning tez ko'payib ketishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlariga zararli ta'sirlari sezilyapti. Natijada, ayni paytda mazkur turni bioekologik xususiyatlarini o'rganish va unga qarshi kurash bo'yicha Respublika O'simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda Toshkent davlat Agrar universiteti olimlari shug'ullanib kelmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, chetdan kirib kelayotgan adventiv turlarning katta qismi O'zbekiston tuproq iqlim sharoitiga tez moslashib invaziv tur sifatida maydonlarini shiddat bilan kengaytirib bormoqda. Bu nafaqat urbanoflora tarkibida balki, tabiiy landshaftlarni ham egallab bormoqda. Bu esa mahalliy floraning xilma-xilligiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Shuni inobatga olib hozirgi kunda O'zbekistonning bir necha shaharlarida urbanoflora bo'yicha tadqiqotlar olib borilyapti. Buning natijasida respublikamiz shaharlarining florasi to'g'risidagi yangi bilimlar shakllanadi va chetdan kirib kelayotgan turlar tarqalishining baholash va bashoratlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Определитель растений Средней Азии: Критический конспект флоры. Т. I–XI. – Ташкент: Фан, 1968 – 2015.
2. Флора Узбекистана. В 6 т. – Ташкент: изд. АН УзССР, 1941-1963.
3. Флора Узбекистана. – Ташкент: Навруз, 2016-2017. Т. 1. 2.
4. Флора Узбекистана. – Ташкент: Манавият, 2019. Т. 3. 201 с.
5. Хусаинов А. Ф., Хусаинова С. А. Анализ адвентивного компонента флоры города Учалы (Республика Башкортостан) // Проблемы изучения адвентивной и синантропной флор России и стран ближнего зарубежья. – 2012. – С. 218-222.
6. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методические рекомендации). – Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. – 48 с.
7. Esanov H.Q. Buxoro vohasi florasi tahlili. Biol. fan. fals. dokt. diss. (PhD). – Toshkent, 2017. - 179 b.
8. Esanov H.Q. Janubi-g'arbiy Qizilqum florasi. Biol. fan. dokt. diss. (DSc). – Toshkent, 2023. – 348 b.
9. Esanov H.K. *Amaranthus viridis* L. (Amaranthaceae) – a new invasive species for the flora of Uzbekistan. *Stapfia Reports*. – Austria, 2017. – № 107. P.127-130.
10. Esanov H.K. Usmonov M. Two alien species of Asteraceae new to Uzbekistan (Bukhara oasis). *Turczaninowia*. – Barnaul, 2018. 21.(4) том, - С. 175-180.
11. Umedov A. M., Esanov H. K. Grid System Analysis of Urban Flora of Bukhara City (Uzbekistan) // *American Journal of Plant Sciences*. – 2024. – Т. 15. – №. 2. – С. 139-144.
12. Wirth T. et al. The vascular flora of Pécs and its immediate vicinity (South Hungary) I.: species richness and the distribution of native and alien plants // *Biologia Futura*. – 2020. – Т. 71. – №. 1. – С. 19-30.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

**№3/1 (124)
2025 y., mart**

O‘zbekcha matn muharriri:
Ruscha matn muharriri:
Inglizcha matn muharriri:
Musahhih:
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod
Hasanov Shodlik
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
O‘rozboyev Abdulla
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 06.03.2025
Bosishga ruxsat etildi: 14.03.2025.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.
Hajmi 14.9 b.t. Buyurtma: № 3-T

Xorazm Ma‘mun akademiyasi nashirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18